



2018 yil yanvar-mart oylarida Qurilish ishlari


RAQAMLAR:

- Qurilish-montaj ishlari hajmi - **355,4 mlrd. so'm**
- Yirik qurilish pudrat tashkilotlarining ulushi - **12,8 foiz**
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar – **57,3 foiz**
- Qurilishda norasmiy sektorning ulushi – **29,9 foiz**

Joriy yilning yanvar-mart oylari bo'yicha Surxandaryo viloyatida 355,4 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 92,2 foizni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-martiga nisbatan 17,7 foiz punktga kamaydi.


Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 45,6 mlrd.so'mni yoki 104,0 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 21,8 foiz punktga oshdi.

Qurilish ishlari (mlrd.so'm)



Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlarining 57,3 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,4 % ni tashkil etdi. Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun turar joylar qurishi, avtomobil yo'llarini yangi qurilishi, rekonstruksiya va ta'mirlash, ijtimoiy soha obyektlari (maktablar, maktabgacha ta'lim muassalari), namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy joylar qurilishida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqda.

**Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati
2018 yil yanvar-mart uchun**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari (mlrd.so'mda)



2018 yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari


	Jami		shu jumladan: hududiy qurilish pudrat tashkilotlari	
	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %da	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %da
Surxondaryo viloyati	355,4	92,2	45,6	104,0
Oltinsoy	8,3	74,5	-	-
Angor	15,1	84,9	-	-
Boysun	23,9	104,0	-	-
Denov	30,0	90,0	-	-
Jarqurg'on	32,4	107,9	-	-
Qiziriq	11,8	65,1	0,5	26,2
Qumqurg'on	25,4	71,0	9,0	43,3
Muzrabot	11,6	76,8	-	-
Sariosiyo	52,1	143,8	26,8	638,3
Termiz	21,1	104,2	-	-
Uzun	11,1	78,5	-	-
Sherobod	18,1	116,0	7,0	140,0
Sho'rchi	9,5	67,2	-	-
Termiz sh.	85,0	84,2	2,3	32,4



Mulkchilik shakllari

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 348,9 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 98,2 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,2 foiz punktiga kamaydi.



*Surxondaryo viloyati
statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish
statistikasi bo'limi*

Nashr uchun mas'ul:

Sh.Gaipov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-85-79